

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TIBBIYOTGA DOIR SO‘ZLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Ubaydullayeva Maxliyo Zubaydullayevna

Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya. Til - inson tafakkurining va madaniyatining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, u faqatgina aloqa vositasi emas, balki jamiyat tarixi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Mazkur ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillarida tibbiyotga oid leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tibbiy terminlarning shakllanishi, ularning milliy-madaniy omillar bilan bog'liqligi, shuningdek, xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot tushunchalarining til orqali ifodalanishi o'rganiladi. Maqolada tibbiyot leksikasining madaniy konnotatsiyasi, metaforik ifodalar va eponimik terminlar misolida lingvomadaniy jihatlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari ingliz–o'zbek tarjima jarayonida tibbiy terminlarni adekvat yetkazish muammolarini hal etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, tibbiy leksika, tibbiy terminologiya, madaniy konnotatsiya, metafora, eponim terminlar, sinonimiya, antonomiya, polisemiya, eponimik tibbiy terminlar, frazeologik birliklar, iboralar.

Kirish

Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik ayniqsa maxsus soha leksikasida, jumladan, tibbiyot terminologiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir xalqning tibbiyotga oid bilimlari, kasalliklarni tushunish va davolashga bo'lgan yondashuvi uning tilida o'z aksini topadi. Shu sababli tibbiy terminlar nafaqat ilmiy tushunchalarni, balki milliy-madaniy qarashlarni ham ifodalaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy leksika tarixiy rivojlanish jarayonida turli madaniy, diniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan. Ingliz tilida tibbiy terminlarning asosiy qismi lotin va yunon tillariga borib taqalsa, o'zbek tilida esa arab-fors, turkiy va xalq tabobatiga oid birliklar muhim o'rin tutadi. Ushbu farqlar tibbiy terminlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishni dolzarb qiladi.

Tibbiyot sohasidagi atamalarining aniq va tushunarli bo'lishi juda muhimdir, chunki tibbiy terminlar bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi va chalkashliklarning oldini oladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarni o'rganish xalqaro tibbiyot muhitida erkin muloqot qilish va malakali mutaxassis bo'lishga yordam beradi. Tibbiy terminlar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati yunon va

lotin tillaridan kelib chiqqan. Masalan, "kardiologiya" (cardiology) so'zi yunoncha "kardia" (yurak) va "logos" (ta'limot) so'zlaridan tashkil topgan. Shuningdek, o'zbek tibbiyot terminlari ko'p jihatdan rus tilidan olingan va ayrim atamalar o'zbek tiliga moslashtirilgan. Misol sifatida, "pediatriya" (bolalar kasalliklari bo'yicha fan) atamasi ham lotincha "paediatrica" so'zidan kelib chiqqanligi bu fikrni tasdiqlaydi [1]. Tibbiy terminlarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari ularning tuzilishi, kelib chiqishi va qo'llanilish uslublariga bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

XX asr oxirida ko'plab tadqiqotchilar terminologiya sohasidagi natijalarni umumlashtirishga harakat qilishdi. K.Ya.Averbux, L.M.Alekseev, M.N. Volodina, A.C.Gerd, E.L.Golovanova, C.B.Grinev-Grinevich, E.S.Kubryakova, V.M.Leychik, L.A.Manerko, C.I.Mishlanova, E.A.Nikulina, V.F.Novodranova, X.Pixt, A.B.Superanskaya, R.Temmerman, S.D.Shelov, A.D.Shmeleva va boshqa tilshunoslar davriylashtirish muammolari va terminologiya tendensiyalarini ko'rib chiqdilar [2].

Lingvomadaniy tadqiqotlar tarixi Vilgelm fon Gumboldtning g'oyalaridan boshlanadi, u tilning madaniy ixtirochiligi va qurilishi bir-biri bilan bog'liq va bir-biriga mos keladi, deb hisoblagan [3]. Bu sohada qo'lidan kelganini qilgan olimlar: A. Verjbickaya, R.M. Keesing, R. Langacker, V. Maslova, V. Karasic, S. Vorcacev, V. Telia, V. Shaklein, F. Vorobev, J. Stepanov, E. Levchenko, V. Kononenko, V. Jayvoronok. O'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqot usullarini izlash", Sayidrahimovning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslari haqida ba'zi mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning tarkibiy qismlari", D. Xudoyberganovning "Matnni antroposentrik o'rganish" maqolalari, maqolalar va monografiyalarni sohada olib borilayotgan tadqiqotlarning dalili sifatida belgilash mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan ishlarda lingvokulturologiyaning mohiyati, predmeti va obyektlari o'rganilgan.

Tibbiyotda qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha aniq fanlarga xos bo'lgan qat'iy atamalar emas, balki majoziy iboralar, mifologik va folklor nomlari qo'llaniladi. Bu iboralar yangi boshlovchi shifokor uchun har doim ham tushunarli bo'lmasligi mumkin. Ammo, bilasizki, hissiy jihatdan rang-barang ma'lumotlar yaxshiroq va to'liqroq o'zlashtiriladi. Bemorlar bilan suhbatda sodda tilda gapirish tavsiya etiladi: mehr bilan, tushunarsiz so'zlar bilan to'ldirilgan ilmiy iboralardan - gipertireoz, yurak tutilishi, yog'li jigardan qochish kerak [4].

Quyidagi elementlarda ba'zi fiziologik jarayonlarni tasvirlaydigan frazeologik birliklarning aksini ko'rishimiz mumkin. Ular shifokorlarning bemorlarning fiziologik

holatini to'g'ridan-to'g'ri aytmaslik uchun muloqot jarayonida ishlatilishi mumkin. Masalan, ingliz tilida "o'lish" o'rniga quyidagi idiomalarni ishlatishimiz mumkin: to pass away, breathe one's last, gone to a better place, go to the big place in the sky, join the great majority, kick the bucket, step off va boshqalar. O'zbek tilida "o'lish" o'rniga ishlatilishi mumkin bo'lgan frazeologik birliklarni uchratamiz: ko'zi tindi, dunyodan o'tmoq, ko'z yummoq, umr o'tkazmoq, umr ko'rmoq, olamdan o'tmoq.

Biz "tug'moq" o'rnini bosuvchi idiomalarni keltirishda davom etadigan bo'lsak, "tug'moq" fe'lini tushuntiruvchi frazeologik birliklarni kiritishimiz mumkin: give birth to, bring into being, bring to life, give life to, call into existence va endow with life. Ushbu berilgan idiomalarning o'zbek ekvivalentlarini ko'rishimiz mumkin: ko'zi yorimoq, dunyoga keltirmoq, kindik qoni to'kilmoq, dunyoga kelmoq.

Tibbiy terminlar asosan tarkibiy qismlarga ajraladigan murakkab so'zlardan iborat. Masalan, gastroenterology» (gastroenterologiya) so'zi gastro» (oshqozon) va «entero» (ichak) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. O'zbek tilida ushbu murakkab so'zlar odatda o'zbekchalashtirilgan shaklda uchraydi: «kardiologiya» (yurak kasalliklarini o'rganish), «nevrologiya» (asab tizimi kasalliklarini o'rganish) kabi [5].

Tibbiy terminlarning ma'nolari aniq va doimiy bo'lib, umumiy nutqdan farq qiladi. Ularning ma'nolari ko'pincha xalqaro miqyosda o'zgarmaydi. Masalan, "diagnosis" (diagnostika) yoki "therapy" (terapiya) atamaları barcha tillarda deyarli bir xil ma'noga ega. Ba'zi tibbiy atamalar tarjima qilinmaydi va xalqaro shaklda ishlatiladi: «antibiotic» «antibiotik», «virus» - «virus» kabi.

Ingliz tilidagi tibbiy terminlar odatda oddiy tuzilishga ega bo'lib, ko'pincha ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi: «blood pressure (qon bosimi), «heart failure» (yurak yetishmovchiligi). O'zbek tilida esa bu terminlar ko'pincha qo'shma so'z yoki izohlovchi tuzilma shaklida ifodalanadi: «yurak yetishmovchiligi», «qon aylanish tizimi kasalliklari» kabi [6].

Ingliz tilidagi tibbiy terminlar odatda yumshoqroq va cho'zilgan ohangda talaffuz qilinadi: neurology» (nyurologi), «psychiatry» (psixiatriya). O'zbek tilidagi tibbiy terminlar esa fonetik jihatdan rus tili ta'sirida shakllangan bo'lib, ba'zan ruscha talaffuzga yaqin bo'ladi: «rentgen», «anesteziya».

Tibbiy terminologiyada sinonimlik va antonimlik alohida o'ringa ega bo'lib, ilmiy aniq terminlar va umumiy tibbiy atamalar orasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Ingliz va o'zbek tillarida bu hodisa turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Quyida bu jihatlar batafsil tahlil qilinadi [7].

Tibbiyot terminologiyasida quyidagi guruh moddalar, jarayonlar, tushunchalar va asboblarning lotincha yozilishi berilmagan: kimyoviy birikmalar, fermentlar, biokimyoviy

jarayonlar, substratlar; dori moddalar, dorivor o'simliklar (firma qabul qilgan va farmakopeyaga kirgan asosiy nomlari retseptlarda keng qo'llaniladigan dorilar bundan mustasno); apparatlar, simptomlar va sindromlar; aksari mutaxassisliklar, tibbiy kasblarning nomlari; alohida terminlar sifatida lug'atda mavjud so'zlardan tashkil topgan murakkab terminlarning aksariyati; xususiy tibbiyot termini bo'lmay, boshqa sohalarda ham lotincha ekvivalenti qabul qilingan atamalar va umuman, lotincha yozilishi kam uchraydigan yoki tor mutaxassislar uchungina tushunarli bo'lgan terminlar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Lingvomadaniyat til birliklari orqali madaniyatni aks ettiruvchi hodisa sifatida qaraladi. Tibbiy leksika esa jamiyatning sog'liq, kasallik va davolash haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi muhim lingvomadaniy qatlamdir. Masalan, o'zbek tilida "dard", "shifo", "tabib" kabi so'zlar nafaqat tibbiy, balki ma'naviy va madaniy ma'noga ham ega.

Ingliz tilida esa disease, cure, physician kabi terminlar ilmiy xarakterga ega bo'lib, ko'proq aniq tashxis va davolash jarayoniga yo'naltirilgan. Bu holat ikki xalqning tibbiyotga bo'lgan munosabatidagi madaniy farqlarni ko'rsatadi.

Ingliz tibbiy terminologiyasining asosiy qismi lotin va yunon tillaridan olingan bo'lib, bu Yevropa tibbiyot an'analariining ta'sirini ko'rsatadi: cardiology, neurology, therapy. Ushbu terminlar universalligi bilan ajralib turadi va ko'plab tillarda deyarli o'zgarmagan holda qo'llaniladi.

O'zbek tilida esa tibbiy leksika ko'pincha xalq tabobati va diniy-madaniy qarashlar bilan bog'liq: issiq-sovuq, ko'z tegishi, parhez, dam solish. Bu so'zlar tibbiy tushunchalar bilan bir qatorda xalqona dunyoqarashni ham aks ettiradi.

Tibbiyotga oid metaforalar har ikki tilda uchraydi, biroq ularning madaniy asoslari turlicha. Ingliz tilida "the heart of the problem", "mental illness" kabi iboralar tibbiy tushunchalarning abstrakt ma'noda qo'llanilishini ko'rsatadi.

O'zbek tilida esa kasalliklar ko'pincha obrazli va hissiy ifodalar orqali beriladi: "yura gi ezildi", "joniga oro kirmadi", "ko'ngli betob". Bu birikmalar tibbiy holat bilan birga emotsional va madaniy qatlamni ham o'z ichiga oladi.

Eponimik tibbiy terminlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Ingliz tilida shaxs nomlari bilan bog'liq tibbiy terminlar (eponimlar) keng tarqalgan: Parkinson's disease, Alzheimer's disease. Bu holat G'arb tibbiyotida ilmiy kashfiyotlarga individual yondashuv kuchli ekanini ko'rsatadi.

O'zbek tilida esa eponimik terminlar kamroq uchraydi, ko'proq kasallikning belgilari yoki kelib chiqishiga asoslangan nomlar ishlatiladi. Bu esa milliy tibbiy tafakkurning o'ziga xosligini aks ettiradi.

Bolalar kasalliklariga oid tibbiy terminlar leksik-semantik jihatdan turli guruhlarga ajratiladi va sintaktik jihatdan so'z birikmalari yoki gap tarkibida qo'llanilishiga qarab tahlil qilinadi. Quyida bu atamalarni tahlil qilamiz. Ba'zi kasalliklar xalq tilida bir necha nom bilan yuritiladi: «Suvchechak» «Varisella», «Ichburug'- «Dizenteriya», «Ko'richak» - «Appenditsit», «Shamollash» «O'tkir respirator infeksiya (ORI)» kabi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki sinonimlik asosan ikki so'z turkumi doirasida yuz beradi.

Ba'zi tibbiy terminlar o'zaro zid ma'noni anglatadi. Tibbiy terminlarda antonimlik asosan bir til doirasida sodir bo'ladi, bu kishilardagi hissiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. <<Gipertermiya» (tana haroratining ortishi)->Gipotermiya» (tana haroratining pasayishi); <Gipertrofiya» (to'qimalarning o'sishi) «Atrofiya» (to'qimalarning kichrayishi) shular jumlasidandir [8].

Tibbiy terminologiyada namoyon bo'luvchi antonimlik hodisasini polisemiya bilan adashtirmasligimiz kerak. Negaki, ulardagi polisemantik xususiyatlar asosan kontekstlar ta'sirida turli mazmun kasb etadi. Masalan, «Raxit tibbiyotda D vitamini yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan kasallik, xalq orasida esa bolaning jismonan zaifligi sifatida tushuniladi. «Allergiya» tibbiy ma'noda immun tizimining ortiqcha reaksiya berishi, ba'zan esa ko'ngil aynishi yoki oziq-ovqat nojo'ya ta'siri ma'nosida ishlatiladi [9].

Ingliz tilida pediatric diseases (bolalar kasalliklari) bilan bog'liq terminlarning leksik-semantik xususiyatlari ham o'ziga xos bo'lib, tibbiyot, anatomiya va patologiya bilan uzviy bog'liq holda, ularning sinonimlik, antonimlik, polisemantik xususiyatlarini quyidagi kategoriyalar asosida ochib beradi:

Sinonimiya. Pediatrik kasalliklar bir necha sinonimik atamalarga ega bo'lishi mumkin. Masalan: Chickenpox (oddiy xalq tilida), Varicella (ilmiy tibbiy atama) sinonimlik hosil qiladi; Whooping cough bilan Pertussis, German measles bilan Rubella; Hand, foot, and mouth disease (HFMD) bilan Cocksackievirus infection ham o'zaro sinonimlik hosil qiladi.

Salomatlik va kasallikka frazeologik birliklarda sinonimlik hodisasi, so'z va ularning leksik-semantik variantlari orasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladigan semantikasi asosida ko'rib chiqiladi Nafaqat ikki so'z (leksik sinonimlik), so'z va frazeologik birlik, balki bir yoki bir necha frazeologik birlik ham bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkin.

O'zbek tilidagi o'ziga kelmoq-salomatlik va kasallikka oid frazeologik birligi "behushlikdan qaytmoq ma'nosida og'zaki nutqda qo'llaniladi, hushiga kelmoq -"odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq" ma'nosida ham kitobiy, ham og'zaki nutqda keng qo'llaniladi.

Ot dumini gajak qilgancha qor sachratib chopib ketdi. Hammamiz orqasidan qarab qoldik. Oqsoqol hamon o'ziga kelolmas, soqoli titrab, pishqirib nafas olardi. (O'. Hoshimov,

Ikki eshik orasi) Dahshatli og'riqdan hushimga keldim. Yana o'sha sarg'ish tuman. (O'. Hoshimov, Ikki eshik orasi)

Ingliz tilida ham shu kabi frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular umumiy jihatdan ma'nodoshlikni ifodalasa ham, alohida kontekstda turlicha ma'noviy bo'yoqdorlikni kuzatish mumkin. Masalan, to come to oneself (norasmiy) va to regain consciousness (rasmiy) frazeologik birliklari "o'ziga kelmoq", "behushlikdan qaytmoq" ma'nolarini ifodalasa, ularga sinonim bo'lgan to snap out of it frazeologik birligi "o'ziga kelmoq", "es-hushini yig'ib olmoq", "hushyor tortmoq" ma'nolarini anglatadi.

"I felt as if I had been wrenched out of my sleep, and forced to come to myself in an instant." (Charlotte Brontë, Jane Eyre)

"When he finally regained consciousness, he found himself lying in a dimly lit room." (Arthur Conan Doyle. The Adventures of Sherlock Holmes)

"Danny wanted to scream at his father to snap out of it, but fear held him back." (Stephen King. The Shining)

Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, frazeologik birliklarda ham so'zlardagi singari uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, frazeologik birliklarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiya bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashda yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Antonimiya nafaqat so'zlarga, balki frazeologik birliklarga ham xos hodisa bo'lishiga qaramay, bu hodisa iboralarda kam o'rganilgan.

Antonimiya. Tibbiy terminlarda antonimiya hodisasi kam uchrasa-da, bolalar kasalliklari bilan bog'liq terminlarda qarama-qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan bir qancha atamalar mavjud: Acute bronchitis (o'tkir bronxit) va Chronic bronchitis (surunkali bronxit): Hyperthermia (haddan tashqari issiqlik) hamda Hypothermia (haddan tashqari sovuqlik) ushbu kategoriyaga misol bo'la oladi [6].

Polisemiya (Polysemy). Ba'zi tibbiy atamalar bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin: Croup nafas yo'llarining torayishi bilan kechuvchi bolalar kasalligi, lekin ba'zan krupoz pnevmoniya degan ma'noda ham ishlatiladi. Rash odatda teridagi toshmalarni anglatadi, lekin ba'zan allergik reaksiya yoki yuqumli kasallik belgisi sifatida ishlatiladi.

Ba'zan tibbiyotda oddiy so'zlar kasallik nomi sifatida qo'llaniladi: Slapped cheek syndrome (Eritema infectiosum "tarsaki tushgan yonoq sindromi") bu nom kasallikda yuzning qizarib ketishi bilan bog'liq. Strawberry tongue (Qulupnay til deya tarjima qilinuvchi ushbu birlik til yuzasida qizil dog'lar paydo bo'lganda qo'llaniladi).

Ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminologiyani qiyosiy tahlili tillarning strukturaviy xususiyatlarini hamda ularning tarixiy va madaniy kontekstlarini aks ettiruvchi bir qancha

muhim lingvistik xususiyatlarni ochib beradi [9]. Natijalar tibbiy atamalarning morfologik tuzilishida, tashqi tillarning ta'sirida va ulardan foydalanishdagi semantik nuanslarda aniq farqlarni ko'rsatadi. Morfologik tuzilmalar va so'z yasalishi

Ingliz va o'zbek tibbiy terminologiyasi o'rtasida kuzatiladigan asosiy farqlardan biri atamalarning morfologik tuzilmalaridir. Ingliz tilida tibbiy atamalar asosan lotin va yunon ildizlari orqali shakllanadi, ko'p sonli atamalar birikma va affiksatsiya jarayonlariga amal qiladi [10]. Masalan, cardiovascular (heart blood vessels) va neurology (nerve + study) kabi atamalar birikma tuzilmalarning keng qo'llanilishini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiyotga doir so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlari har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va tibbiyotga bo'lgan munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Ingliz tilidagi tibbiy terminlar ilmiy va xalqaro xarakterga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi tibbiy leksika ko'proq xalqona, obrazli va madaniy jihatdan boydir. Ushbu farqlarni chuqur o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa tibbiy matnlar tarjimasini va madaniyatlararo muloqot jarayonida.

Tibbiy terminologiyani ingliz va o'zbek tillarida o'rganish til, fan va madaniyatning kesishishi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Jahon tibbiyot hamjamiyati rivojlanishda davom etar ekan, tibbiy atamalarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha doimiy tadqiqotlar tillararo muloqotni yaxshilash, tibbiy ta'limni rivojlantirish va tibbiyot sohasining lingvistik xilma-xilligini saqlab qolishda juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximova Shoirat Atabekovna, Yoldosheva Xusnora Xusinboy Qizi INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TIBBIY ATAMALARNING LEKSIKOGRAFIK MUAMMOLARI // IJSSR. 2023. №5.
2. Хожиев А. Ўзбек тилининг кўп жилдли изоҳли луғатини тузувчилар учун йўриқнома. Тошкент, 2000
3. Sapaeva D.N. Scientific medical text in the medical paradigm linguistics. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (4), 2022. P. 890-894.
4. Barbara Janson Koen. Lippincott Williams & Wilkins; Tibbiyot terminologiyasi. Qo'llanma. 7-nashr. 2016.
5. Реформатский А. А. Введение в языковедение: Учебник для вузов. М. 1947. – 544 с.

6. Volodina M.N. Terminologik nominatsiya nazariyasi. 1997. -C.180.
7. Авербух К. И. Общая теория термина. Иваново: Ивановский государственный университет, 2004. - С.52.
8. Bolliyeu M.N, Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi - Toshkent: Ilm ziyo, 2005,256 b.
9. Лейчик В. М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. М.КомКнига, 2006. - С. 85.
10. Jabborova, S.A. (2024). A cross-sectional study of medical terms in English and Uzbek languages
11. Kuzmin, V. (2012). The Influence of Russian on Modern Uzbek Medical Terminology. Central Asian Journal of Linguistics, 45(3), 112-125